

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATLASHUVNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	9
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ALIGNING NATIONAL AND INTERNATIONAL UNIVERSITY RANKING INDICATORS: A CROSSWALK METHODOLOGY.....	16
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	28
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	34
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
SANOAT KORXONASINING ATROF-MUHIT VA AHOLI SOG'LIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	40
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI	44
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
MACHINE LEARNING-ASSISTED PREDICTION OF FIRE-RETARDANT AND PRESERVATIVE PERFORMANCE OF CHEMICALLY MODIFIED WOOD: AN ECO-FRIENDLY APPROACH.....	52
Usmanova Maftunakhon Abror qizi	
TEMIR YO'L AVTOMATIKA VA TELEMEXANIKA MAYDON QURILMALARINI MASOFAVIY NAZORAT QILISH ISHONCHLILIGINI UYALI ALOQA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	60
Botirov Abdulaziz Temir o'g'li	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'IDA NOL STAVKANI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66
A.A. Bobomurodov	
KERAMIKA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MEHNAT SHAROITLARINI SANITAR-GIGIYENIK VA INTEGRAL BAHOLASH («OZIQ-OVQAT STANDART KARTON» MCHJ TARKIBIDAGI «TOSHKENT KAFEL» KORXONASI MISOLIDA)	71
S. Sulaymanov, N.A. Erdonova	
PYTHON-BASED NUMERICAL ANALYSIS OF THE LOGISTIC POPULATION GROWTH MODEL	76
Berdiyev Shohjahon, Khayitova Fayza	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOT HAJMIGA SOLIQ OMILINING TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	85
Fayziyeva Nargiza Rabimovna	
ISHLAB CHIQUARISH KICHIK BIZNESINI HUDUDIY JOYLASHTIRISH OMILLARI VA IXTISOSLASHUV YO'NALISHLARINI BAHOLASH	93
Salimov Burxoniddin	
OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	98
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
CHUQUQ O'RGANISH ARXITEKTURALARI ASOSIDA O'ZBEK TILIDAGI SOXTA XABARLARNI ANIQLASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH	105
Uzoqov Lochinbek Mamurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	111
Almanov Ilhom Sultonovich	



TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN ISHLAB CHIQARISHNI MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI	125
Iskandarova Dilorom Xayrullayevna	
KORXONALARDA BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING GLOBAL VA MILLIY AMALIYOTI TAHLILI	130
Jumaev Sohib Baxodirovich	
YOSHLARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI IQTISODIY FAROVONLIKKA KONVERSIYA QILISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEKANIZMI	136
Palvonova Sevara Baxromovna	
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI TIZIMIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	141
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	
ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ.....	148
Mўminjonov Anvarbek Сайфитдин угли	
NOQISHLOQ XO'JALIGINING TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASHDA ILMIY- USLUBIY YONDASHUVLAR	156
Nurullayev Ulug'bek	
TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING ROLI	161
Karimova Dilafruz Sadirdin qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KREATIV XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	166
Xamroyeva Sitara Otabekovna	
ОЦЕНКА ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СТАНЦИИ, ИНТЕГРИРОВАННОЙ С МАГИСТРАЛЬНЫМИ ВОДОКАНАЛАМИ.	172
Юлдошев Исроил, Ботиров Бозорбек, Жураев Обид, Курбанов Юнус, Хамдамова Ирода, Атоева Мохинур	
SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA KLINIK VA BOSHQARUV QARORLARINI QO'LLAB-QUVVATLOVCHI RAQAMLI PLATFORMALARNI RIVOJLANTIRISH	185
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLARNING TARKIBIY KO'RINISHLARI HAMDA ULARNI ANIQLASH AMALIYOTI TAHLILI	190
Mulayev Farxod Alisherovich	
SANOATDA PORSHENLI KOMPRESSORLARNING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ASOSIY MUAMMOLAR TAHLILI	195
Abdixakimova Malika Amir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI KOMPETENSIYALAR VA TA'LIM TRANSFORMATSIYASI	207
Nazarov Baxrom Mustafayevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	213
Qahramonova Maftuna Davronovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	220
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
KO'P FAKTORLI AVTENTIFIKATSIYA VA KRIPTOGRAFIK HIMOYA MEKANIZMLARI ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI OSHIRISH	227
Babakulov Bekzod Mamatkulov	
AHOLIGA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI TIZIMLI RIVOJLANTIRISHNING EMPIRIK TADQIQOTI	234
Nasrullayev Feruz	
SOLIQDAN BO'YIN TOVLASH HOLATLARINI KAMAYTIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ XAVFINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	238
Ismailov Bobir Salomovich	
ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ И РЕЖИМОВ РАБОТЫ ГИБРИДНОЙ СОЛНЕЧНО-КОТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ТЕПЛОСНАБЖЕНИЯ В КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ..	245
Файзиев Зафар, Юзбаева Шохид	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH: INSTITUTSIONAL ASOSLAR, INVESTITSIYAVIY IMKONIYATLAR VA IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIK.....	250
Sh. Qurbonova	
XULQ-ATVORGА ASOSLANGAN SUG'URTA KONSEPSIYASI ORQALI SUG'URTA TARIFLARINI PERSONALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	260
Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING O'RNI VA AHAMIYATI	265
N.K. Muxitdinova, Raxmatova Sevinch	
YUQORI TEXNOLOGIYALI SANOAT TARMOQLARIDA QO'SHILGAN QIYMATNI OSHIRISH MASALALARI: O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI MISOLIDA	269
Ashirmetova Ozoda Farxod qizi	
KINEMATIC SIMULATION OF SPINDLE AND PRESSING-SECTOR MOTION IN AN ELLIPTICAL-DRUM VERTICAL-SPINDLE COTTON PICKER.....	277
Rajapbayev Umidjon Alisher o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION MAHSULOTLARGA ICHKI TALABNI SHAKLLANTIRISH VA ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	283
Azizova Maliha Farrux qizi	
AGLOMERATSIYALAR VA YIRIK SHAHARLAR ATROFIDAGI HUDUDLARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING SHAHARSOZLIK MODEL I	290
Azamiddin Quldashev	
ZAMONAVIY SHAHARLAR EKOLOGIK INFRATUZILMASINING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	295
Jo'rayev Muxriddin, Olimova Mohinur, Tugalov Bobur	
BYUDJET YO'QOTISHLARINING JARAYONLI LOKALIZATSIYASI: DAVLAT XARIDLARI TRANSAKSION SIKLINING XARITASI (PROCESS MAPPING).....	301
Jasur Nurmatov	
QUYOSH ENERGIYASI ASOSIDAGI ISSIQXONA MIKROIQLIMINI TA'MINLASH QURILMASINING PARAMETRLARI VA ISH REJIMLARINI OPTIMALLASHTIRISH.....	307
Qulboyev Zohid Xo'jamuradovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATLASHUV DARAJASINING ZAMONAVIY HOLATI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI	312
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA HUDUDIY INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIKNI OSHIRISH VA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	317
Muxamadjanov Shaxriyor Solijon o'g'li	



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОЕКТНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ И ЛИЗИНГА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	324
Исомов Б.С.	
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ВЕРИФИКАЦИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ИСПАРИТЕЛЬНОГО ОХЛАЖДЕНИЯ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОГО МОДУЛЯ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА.....	330
Ботиров Бозорбек, Тураев Фарходжон	
KAM RESURSLI TILLARDAGI ILMIY JURNALLAR UCHUN METAMA'LUMOTLARNI AVTOMATIK EKSTRAKSIYA QILISH VOSITASI.....	336
Rashid Turgunbaev	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПИЛЬНОГО ОЧИСТИТЕЛЯ ВОЛОКНА.....	342
Дадажанов Арафатали Комилжанович	
INVESTMENTS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT	348
Yorqin Khudoyiberdiev	
INVESTMENTS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT	352
Yorqin Khudoyiberdiev	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EMPIRIK TAHLIL QILISH	360
Ergashev Azizxon Avazxon o'g'li	
ELEKTRON BANK XIZMATLARINI AUDIT QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI	365
To'rayeva Farida Rustam qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL BOZORI VOSITALARI ORQALI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	369
Qurbonov Javlonbek, Farxodova Aziza	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	374
Сейдеметова Эльмира Оралбай кизи	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUVI VA DAROMADLARINING PROGNOZI	378
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
XIZMATLAR SOHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	385
Raximov Zafar Komilovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLAGI DINAMIKASINI STATISTIK TAHLIL QILISH	392
Akbarova Barno Shuxratovna	

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLAGI DINAMIKASINI STATISTIK TAHLIL QILISH



Akbarova Barno Shuxratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Statistika” kafedrası dotsent, PhD

ORCID: 0000-0002-3354-5395

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligi dinamikasi statistik jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi kichik biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, iqtisodiy faollikni ifodalovchi asosiy statistik ko'rsatkichlarning o'zgarishini baholash hamda ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda kichik biznes subyektlari soni, ishlab chiqarish hajmi, yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushi, bandlik, eksport va investitsiya ko'rsatkichlarining dinamikasi tahlil qilingan. Statistik tahlil jarayonida dinamika qatorlari, mutlaq va nisbiy o'zgarishlar, o'sish sur'atlari, o'rtacha o'sish sur'atlari hamda tarkibiy ko'rsatkichlardan foydalanish nazarda tutilgan. Tahlil natijasida kichik biznes iqtisodiy faolligining o'zgarish tendensiyalari, rivojlanish sur'atlari va mavjud hududiy tafovutlar baholanadi. Olingan natijalar kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish va sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, iqtisodiy faollik, statistik tahlil, dinamika qatorlari, o'sish sur'ati, kichik tadbirkorlik, bandlik, investitsiyalar, eksport, yalpi qo'shilgan qiymat, hududiy tafovutlar, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье с использованием статистических методов исследована динамика экономической активности субъектов малого бизнеса в Республике Узбекистан. Основная цель исследования заключается в выявлении тенденций развития сферы малого бизнеса, оценке изменения основных статистических показателей, характеризующих экономическую активность, а также в установлении взаимосвязей между ними. В работе проанализирована динамика таких показателей, как число субъектов малого бизнеса, объем производства, доля в валовой добавленной стоимости, занятость, экспорт и инвестиции. В процессе статистического анализа предусмотрено использование рядов динамики, абсолютных и относительных изменений, темпов роста, среднегодовых темпов роста, а также структурных показателей. По результатам анализа оцениваются тенденции изменения экономической активности малого бизнеса, темпы его развития и существующие региональные различия. Полученные результаты служат основой для выработки научно-практических выводов по совершенствованию политики поддержки малого бизнеса, эффективному использованию ресурсов и обеспечению устойчивого развития данной сферы.

Ключевые слова: малый бизнес, экономическая активность, статистический анализ, ряды динамики, темп роста, малое предпринимательство, занятость, инвестиции, экспорт, валовая добавленная стоимость, региональные различия, экономическое развитие.

Abstract: This article employs statistical methods to examine the dynamics of the economic activity of small business entities in the Republic of Uzbekistan. The main purpose of the study is to identify development trends in the small business sector, assess changes in the key statistical indicators characterizing economic activity, and establish the interrelationships among them. The study analyzes the dynamics of indicators such as the number of small business entities, output volume, share in gross value added, employment, exports, and investment. The statistical analysis draws on time series, absolute and relative changes, growth rates, average growth rates, and structural indicators. Based on the analysis, the trends in the economic activity of small business, its development rates, and existing regional disparities are assessed. The findings provide a basis for developing scientifically grounded practical conclusions aimed at improving small business support policy, enhancing the efficient use of resources, and ensuring the sustainable development of the sector.

Keywords: small business, economic activity, statistical analysis, time series, growth rate, small entrepreneurship, employment, investment, exports, gross value added, regional disparities, economic development.



KIRISH

Bugungi kunda kichik biznes iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xususiy sektorning rolini kuchaytirish va raqobat muhitini rivojlantirish sharoitida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligini muntazam statistik baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xususiy mulkni himoya qilish, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqishini rag'batlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar kichik biznes subyektlari soni, ular tomonidan yaratilayotgan qo'shilgan qiymat, ish bilan bandlik, investitsiya va eksport faoliyati kabi ko'rsatkichlarda o'z aksini topmoqda. Shu nuqtai nazardan, sohadagi o'zgarishlarni faqat mutlaq ko'rsatkichlar asosida emas, balki ularning dinamikasi, o'sish sur'atlari va iqtisodiy jarayonlardagi ulushi orqali kompleks baholash zarur.

Kichik biznes iqtisodiy faolligini statistik o'rganishda ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini aniqlash alohida ahamiyatga ega. Dinamika qatorlari asosida kichik biznes rivojlanishining uzoq muddatli tendensiyalarini aniqlash, o'sish va pasayish davrlarini baholash, tarkibiy o'zgarishlarni o'rganish hamda sohaning iqtisodiyotdagi o'rnini miqdoriy jihatdan ifodalash imkoniyati yaratiladi. Bunda kichik biznes subyektlari soni, bandlik, ishlab chiqarish hajmi, yalpi qo'shilgan qiymat, investitsiyalar va eksport kabi ko'rsatkichlar muhim statistik indikatorlar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, kichik biznesning iqtisodiy faolligi bir xil darajada shakllanmaydi. Hududlarning iqtisodiy salohiyati, infratuzilmasi, mehnat resurslari, investitsion muhit, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati va iste'mol bozorining hajmi kabi omillar kichik biznes rivojlanishida hududiy tafovutlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, kichik biznes iqtisodiy faolligini statistik tahlil qilishda nafaqat respublika miqyosidagi umumiy tendensiyalarni, balki hududlar kesimidagi farqlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, kichik biznes sohasida shakllanayotgan iqtisodiy jarayonlarning miqdoriy xususiyatlarini aniqlash, ularning vaqt davomidagi o'zgarish tendensiyalarini baholash va mavjud hududiy tafovutlarni statistik usullar asosida ochib berish kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarining samaradorligini oshirish uchun muhim axborot bazasini shakllantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligi, ularning o'sishi, bandlikni ta'minlashdagi roli, moliyaviy resurslardan foydalanishi va iqtisodiy o'sishga ta'siri xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni shartli ravishda kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi roli, firmalar o'sishi va dinamikasi, moliyaviy cheklovlar, bandlik va hududiy tadbirkorlik muhiti bo'yicha guruhlash mumkin.

Kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi ahamiyatini tushuntirishda Joseph Schumpeterning tadbirkorlik va innovatsiyalar konsepsiyasi muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Shumpeter tadbirkorni yangi mahsulot, yangi texnologiya, yangi bozor yoki ishlab chiqarishni tashkil etish usullarini joriy qiluvchi iqtisodiy agent sifatida ko'radi. Bu yondashuv kichik biznesning iqtisodiy faolligini baholashda faqat korxonalar sonini emas, balki ularning innovatsion va bozor faolligini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Kichik biznes va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik David Audretsch va Max Keilbach tadqiqotlarida yanada rivojlantirilgan. Mualliflar "entrepreneurship capital" tushunchasini ilgari surib, tadbirkorlik muhiti iqtisodiy natijalarga ta'sir qiluvchi alohida omil bo'lishi mumkinligini empirik jihatdan tekshirgan. Germaniya hududlari misolida tadbirkorlik kapitali va aholi jon boshiga daromad o'rtasidagi munosabat tahlil qilingan.

Audretsch, Keilbach va Erik Lehmannning Entrepreneurship and Economic Growth asarida tadbirkorlik iqtisodiy o'sish va bandlikni shakllantiruvchi mexanizm sifatida qoraladi. Mualliflar tadbirkorlik siyosatini oddiy SME siyosati bilan bir xil tushuncha emasligini ta'kidlab, tadbirkorlik muhitidagi institutsional va bilim omillarining ahamiyatini asoslaydilar.

Kichik firmalar o'sishining ichki va tashqi omillari Per Davidsson, Leona Achtenhagen va Lucia Naldi tomonidan keng qamrovda o'rganilgan. Mualliflar kichik firmalar o'sishi bo'yicha tadqiqotlarni umumlashtirib, o'sishni o'lchash usulining o'zi natijalarni taqqoslashga jiddiy ta'sir qilishini ko'rsatadi. Shuningdek, kichik firmalar o'sishining ichki va tashqi drayverlari mavjudligini ta'kidlaydilar.

Davidssonning yana bir tadqiqotida kichik firmalarning o'sishi va faoliyatini tushuntirishda qobiliyat, ehtiyoj va imkoniyat kabi omillar konseptual asos sifatida taklif etilgan. Bu yondashuv kichik biznes subyektlari faolligini faqat tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki firmaning ichki xususiyatlari va biznes muhiti bilan birgalikda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Kichik biznesning iqtisodiy faolligiga moliyaviy resurslarning ta'siri Thorsten Beck, Asli Demirgüç-Kunt va

Vojislav Maksimovic tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan. 54 mamlakat firmalari bo'yicha ma'lumotlar asosida olib borilgan tadqiqotda eng kichik firmalar moliyaviy, huquqiy va institutsional cheklovlariga ko'proq duch kelishi aniqlangan. Shuningdek, moliyaviy va institutsional rivojlanish kichik firmalar uchun mavjud cheklovlarni yumshatishi ko'rsatilgan.

Beck, Demirgüç-Kunt, Luc Laeven va Ross Levine tomonidan olib borilgan tadqiqotda moliyaviy tizimning rivojlanishi kichik firmalarga nisbatan qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan. Natijalar moliyaviy rivojlanish kichik firmalarga texnologik jihatdan ko'proq tayanadigan tarmoqlarning o'sishiga nisbatan kuchliroq ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatgan. Bu kichik biznes iqtisodiy faolligida moliyaviy infratuzilmaning rolini alohida statistik omil sifatida o'rganish zarurligini asoslaydi.

Beck va Demirgüç-Kuntning keyingi tadqiqotida kichik va o'rta biznesning tashqi moliyalashtirishga kirish imkoniyatlari alohida tahlil qilingan. Mualliflar kichik firmalarda moliyaviy cheklovlar yuqoriroq ekanini, moliyaviy va institutsional rivojlanish esa ushbu cheklovlarni kamaytirishini ta'kidlaydilar.

Kichik biznesning bandlikka ta'siri bo'yicha David Neumark, Brandon Wall va Junfu Zhang tomonidan olib borilgan tadqiqotda kichik firmalarning ish o'rinlari yaratishdagi roli qayta baholangan. Mualliflar yangi ma'lumotlar asosida kichik korxona va muassasalarning sof ish o'rinlari yaratishi yuqoriroq ekanini ko'rsatgan, biroq ushbu ta'sir Birchning avvalgi baholaridagi darajadan ancha past ekanini qayd etgan. Bu natija kichik biznesning bandlikdagi rolini statistik tahlil qilishda metodologiya va ma'lumotlar bazasining muhimligini ko'rsatadi.

Mazkur masalada Erik H. Haltiwanger, Ron S. Jarmin va Javier Miranda tadqiqotlari ham muhim bo'lib, ular firma yoshi va hajmini alohida hisobga olish zarurligini ko'rsatgan. Shu nuqtai nazardan, kichik biznesning iqtisodiy faolligini faqat "kichik korxona" kategoriyasi asosida baholash yetarli emas; firmaning yoshi, o'sish sur'ati va mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlar ham muhimdir.

Kichik firmalar ichida jadal o'suvchi korxonalarning ahamiyatini o'rgangan David Birch tadqiqotlari "job creation" yo'nalishidagi tadqiqotlarga asos solgan. Keyingi tadqiqotlar, jumladan, "gazelle firms" bo'yicha tadqiqotlar jadal o'suvchi korxonalar yangi ish o'rinlarini yaratishda nomutanosib darajada katta hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatgan. Shu bilan birga, korxonaning yoshi uning kichikligiga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari bilan kuchliroq bog'liq bo'lishi mumkinligi aniqlangan.

Xalqaro statistik nuqtai nazardan, OECD tadqiqotlari kichik va o'rta biznesni baholash uchun keng qamrovli ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, ko'plab OECD iqtisodiyotlarida SMEs firmalarning 99 foizdan ortig'ini tashkil etadi, biznes sektori bandligining yarmidan ko'prog'ini ta'minlaydi va biznes sektori yalpi ichki mahsulotining yarmidan ko'prog'ini yaratadi. Shu bilan birga, kichik firmalarning mehnat unumdorligi, ish haqi va xalqaro raqobatbardoshligi tarmoqlar va hududlar bo'yicha sezilarli farq qiladi.

O'zbekistonda kichik biznesning statistik jihatlarini bo'yicha so'nggi tadqiqotlar ham shakllanib bormoqda. Xususan, Nazar Nazarovning 2025-yildagi tadqiqotida kichik biznes statistik ko'rsatkichlarining axborot bazasi va uning iqtisodiy samaradorlikni baholashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Muallif kichik biznes faoliyatini baholashda sifatli statistik axborot bazasining ahamiyatini asoslagan.

Nafosat Sharopovanning 2025-yilgi tadqiqotida O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyati, tarmoqlar va hududlar kesimidagi rivojlanish dinamikasi hamda tarkibiy o'zgarishlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Muallif kichik biznesning YaIM, eksport va bandlikdagi rolini alohida ko'rib chiqqan. Bu tadqiqot bizning mavzuimizga eng yaqin ishlanmalardan biri hisoblanadi.

Akbarova Barno Shuxratovnaning 2025-yilda chop etilgan tadqiqotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini hududiy statistik guruhlash masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda kichik biznesning innovatsion faoliyati, innovatsion mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning hududiy tarkibi hamda mehnat unumdorligi dinamikasiga e'tibor qaratilgan. Mazkur yondashuv kichik biznes iqtisodiy faolligini hududlar kesimida differentsiatsiyalash uchun metodik asos bo'la oladi.

Sultanmurod Ergashov va Bobur Komiljonovning 2024-yilgi ishida kichik biznesga ta'sir qiluvchi omillarni statistik tahlil qilishda dastlabki statistik tekshiruvlar va omillarni guruhlash zarurligi asoslangan. Bu yondashuv kichik biznes iqtisodiy faolligiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarni tanlash va ularni statistik modelga kiritish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Jalolxon Nuritdinov va Islomjon Xoshimovning 2024-yilgi tadqiqotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi hamda hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari o'rtasidagi bog'liqlik ekonometrik usullar asosida o'rganilgan. Mualliflar korrelyatsiya va regressiya tahlili kabi usullardan foydalangan.

Shuningdek, Nazar Nazarovning 2026-yildagi tadqiqotida Buxoro viloyatidagi 1001 ta kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligi ko'p omilli ekonometrik modellar asosida baholangan. Bu ish mikro darajadagi korxonalar ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi va respublika miqyosidagi dinamik statistik tahlilni korxona darajasidagi ekonometrik baholash bilan to'ldirish mumkinligini anglatadi.

Shunday qilib, xorijiy tadqiqotlar kichik biznes iqtisodiy faolligini asosan iqtisodiy o'sish, firmalar o'sishi,



bandlik, moliyalashtirish, tadbirkorlik kapitali va institutsional muhit bilan bog'liq holda o'rgangan. O'zbekistonlik tadqiqotlarda esa kichik biznesning statistik ko'rsatkichlari, hududiy tafovutlari, YaIMdagi ulushi, iqtisodiy samaradorligi va rivojlanish tendensiyalariga ko'proq e'tibor qaratilgan.

Biroq, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligini bir nechta asosiy statistik ko'rsatkichlarni yagona dinamik tizimga birlashtirgan holda, uzoq muddatli davrda kompleks baholash masalasi hali yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan. Xususan, subyektlar soni, faol subyektlar, yangidan tashkil etilgan korxonalar, bandlik, ishlab chiqarish, xizmatlar, chakana savdo, investitsiya va eksport ko'rsatkichlarini bir vaqtning o'zida dinamik tahlil qilish tadqiqotning ilmiy jihatdan farqlanuvchi tomoni bo'lishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida statistik usullardan dinamika qatorlari tahlili, mutlaq va nisbiy o'zgarishlar, tarkibiy va hududiy tahlil, kompleks indeks va trend modellaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligi dinamikasini baholashda YaIMdagi ulush, bandlik, chakana savdo aylanmasi va sanoat ishlab chiqarishidagi ulush kabi ko'rsatkichlar asosiy indikatorlar sifatida tanlandi. Ushbu ko'rsatkichlar kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini turli jihatlardan ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda kichik biznes subyektlari iqtisodiy faolligining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi, 2015–2025 yillar¹

Yil	YaIMdagi ulushi, %	Band bo'lganlar, ming kishi	Chakana savdo aylanmasi, mlrd so'm	Sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi, %
2015	64,6	10 170,4	61 972,3	40,6
2016	66,8	10 397,5	78 935,6	45,3
2017	67,4	10 541,5	92 973,0	41,2
2018	63,5	10 128,8	114 896,4	37,4
2019	58,1	10 318,9	138 920,7	25,8
2020	56,7	9 865,7	164 106,1	27,9
2021	56,3	10 080,6	186 759,3	27,4
2022	54,3	10 131,1	229 166,7	26,0
2023	53,8	10 373,3	275 629,8	27,0
2024	53,5	10 538,6	345 414,5	31,9
2025	52,2	11 183,4	400 503,2	34,9

Jadval ma'lumotlari kichik biznes iqtisodiy faolligining turli yo'nalishlarida bir xil dinamika shakllanmaganini ko'rsatadi.

Birinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 2015-yildagi 64,6 %dan 2017-yilda 67,4 %ga ko'tarilgan. Shundan keyin mazkur ko'rsatkich pasayish tendensiyasiga o'tib, 2020-yilda 56,7 %, 2023-yilda 53,8 % va 2025-yilda 52,2 %ni tashkil etgan. Natijada 2015–2025-yillarda YaIMdagi ulush 12,4 foiz punktga kamaygan.

Biroq, bu holatni kichik biznesning mutlaq iqtisodiy faolligi pasaygan, deb talqin qilish to'g'ri emas. Chunki bir vaqtning o'zida chakana savdo aylanmasi va bandlik ko'rsatkichlari o'sgan.

Ikkinchidan, kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni 2015-yilda 10 170,4 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 11 183,4 ming kishiga yetgan. Demak, 11 yillik davrda bandlik 1 013,0 ming kishiga yoki 10,0 %ga oshgan. O'rtacha yillik mutlaq qo'shimcha o'sish:

$$\bar{\Delta I} = \frac{11183,4 - 10170,4}{10} = 101,3 \text{ ming kishi}$$

ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, bandlik dinamikasi barqaror o'sishdan iborat emas. Masalan, 2018-yilda 10 128,8 ming

1 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining SIAT ma'lumotlar bazasi

kishiga, 2020-yilda pandemiya bo'lganligi sababli 9 865,7 ming kishiga tushgan. 2021-yildan keyin qayta o'sish kuzatilib, eng yuqori qiymat 2025-yilda qayd etilgan. 2024–2025-yillarda bandlikning yillik o'sishi taxminan 6,1 %ni tashkil etgan.

Uchinchidan, eng yuqori dinamik o'sish chakana savdo aylanmasida kuzatilgan. Ushbu ko'rsatkich 2015-yildagi 61 972,3 mlrd so'mdan 2025-yilda 400 503,2 mlrd so'mga yetgan. Natijada mutlaq qo'shimcha:

$$\Delta R = 400\,503,2 - 61\,972,3 = 338\,530,9 \text{ mlrd so'm}$$

ni tashkil etgan.

2015–2025-yillar davrida chakana savdo aylanmasining umumiy o'sishi:

$$T_{\Delta R} = \left(\frac{400\,503,2}{61\,972,3} - 1 \right) * 100 = 546,3\%$$

bo'lgan.

O'rtacha yillik o'sish sur'ati esa:

$$\overline{T_R} = \sqrt[10]{\frac{400\,503,2}{61\,972,3}} * 100 = 120,5\%$$

ni tashkil etgan. Demak, nominal chakana savdo aylanmasi 2015–2025-yillarda o'rtacha hisobda yiliga taxminan 20,5 % o'sgan.

To'rtinchidan, sanoat ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi YaIMdagi ulushdan farqli dinamikaga ega. 2015-yilda mazkur ko'rsatkich 40,6 %, 2016-yilda esa 45,3 %ga yetgan. Keyin 2019-yilda 25,8 %gacha pasaygan. 2020–2025-yillarda esa qayta tiklanish kuzatilib, 2025-yilda 34,9 %ni tashkil etgan.

Shunday qilib, 2015–2025-yillarda sanoat ishlab chiqarishida kichik biznes ulushi 5,7 foiz punktga kamaygan, ammo 2019-yildagi minimumdan 2025-yilgacha 9,1 foiz punktga oshgan (2-jadval).

2-jadval.

2015–2025-yillarda asosiy ko'rsatkichlarning umumiy dinamik o'zgarishi²

Ko'rsatkich	2015	2025	Mutlaq o'zgarish	Nisbiy o'zgarish	O'rtacha yillik o'zgarish
YaIMdagi ulush, %	64,6	52,2	–12,4 f.p.	–19,2 %	–1,24 f.p.
Bandlik, ming kishi	10 170,4	11 183,4	+1 013,0	+10,0 %	+101,3 ming kishi
Chakana savdo, mlrd so'm	61 972,3	400 503,2	+338 530,9	+546,3 %	+33 853,1 mlrd so'm
Sanoatdagi ulush, %	40,6	34,9	–5,7 f.p.	–14,0 %	–0,57 f.p.

Tahlildan ko'rinadiki, kichik biznesning iqtisodiy faolligi bitta ko'rsatkich bilan baholanganda noto'g'ri xulosaga kelish ehtimoli yuqori. Masalan, YaIMdagi ulush 64,6 %dan 52,2 %ga tushgan bo'lsa, bandlik 10,0 %ga, chakana savdo aylanmasi esa nominal hisobda 6,5 baravarga oshgan.

Tahlil davomida, 2015–2025-yillarda kichik biznes subyektlari iqtisodiy faolligining uchta asosiy ko'rinishi aniqlandi.

Birinchisi, iqtisodiyotdagi nisbiy ulushning qisqarishi. Kichik biznesning YaIMdagi ulushi 2017-yilda 67,4 % bilan maksimal darajaga yetgan bo'lsa, 2025-yilda 52,2 %ga tushgan. Bu 15,2 foiz punktlilik pasayishni anglatadi.

Ikkinchisi, mehnat bozoridagi rolining saqlanishi va kuchayishi. 2015–2025-yillarda kichik biznesda band bo'lganlar soni 1 013,0 ming kishiga oshgan.

Uchinchisi, chakana savdo faolligining yuqori nominal o'sishi. Kichik biznes subyektlarining chakana savdo aylanmasi 2015-yilga nisbatan 2025-yilda 646,3 % darajasiga yetgan.

Ushbu natijalar kichik biznes iqtisodiy faolligini bitta indikator orqali baholash maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi. YaIMdagi ulushning pasayishi bandlik va savdo faoliyatining o'sishi bilan bir vaqtda sodir bo'lgan. Shuning uchun kichik biznesning iqtisodiy faolligini kompleks baholashda YaIMdagi ulush + bandlik + savdo + sanoat + investitsiya + eksport ko'rsatkichlarini birgalikda tahlil qilish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2015–2025-yillarda O'zbekistonda kichik biznes



subyektlarining iqtisodiy faolligi bir xil yo'nalishda emas, balki turli ko'rsatkichlar bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi, hatto qarama-qarshi tendensiyalarda rivojlangan.

Birinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2017-yildagi 67,4 % darajasidan 2025-yilda 52,2 %gacha pasayib, tahlil davrida umumiy hisobda 12,4 foiz punktga qisqargan. Biroq, bu holatni sohaning mutlaq faolligi pasaygan, deb bir tomonlama talqin qilib bo'lmaydi, chunki ayni davrda boshqa ko'rsatkichlar ijobiy dinamikaga ega bo'lgan.

Ikkinchidan, kichik biznesda band bo'lganlar soni 2015–2025-yillarda 1 013,0 ming kishiga yoki 10,0 %ga oshib, sohaning mehnat bozorida o'zni nafaqat saqlangan, balki mustahkamlangan. Pandemiya davrida (2018–2020-yillar) qisqa muddatli pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab barqaror o'sish tiklangan.

Uchinchidan, kichik biznes subyektlarining chakana savdo aylanmasi eng yuqori dinamikani namoyon etib, tahlil davrida nominal hisobda 546,3 %ga (o'rtacha yillik 20,5 %) oshgan, bu esa sohaning iste'mol bozorida faolligini sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, sanoat ishlab chiqarishidagi kichik biznes ulushi nobarqaror dinamikaga ega bo'lib, 2015-yildagi 40,6 %dan 2019-yilda 25,8 %gacha pasaygan, so'ngra 2025-yilga kelib 34,9 %gacha tiklangan. Bu sohaning sanoat yo'nalishidagi faolligi tashqi omillarga nisbatan ko'proq sezgir ekanini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlil kichik biznes iqtisodiy faolligini faqat bittagina ko'rsatkich (masalan, YaIMdagi ulush) orqali baholash ilmiy jihatdan asosli bo'lmagan xulosalarga olib kelishi mumkinligini isbotladi. Shu sababli, sohaning real holatini baholashda YaIMdagi ulush, bandlik, chakana savdo aylanmasi, sanoat ishlab chiqarishi, investitsiya va eksport kabi ko'rsatkichlarni yagona kompleks tizimda, dinamika qatorlari asosida birgalikda tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., Maksimovic, V. (2005). *Financial and Legal Constraints to Growth: Does Firm Size Matter?* **The Journal of Finance**, **60**(1), 137–177.
2. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A. (2006). *Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint.* **Journal of Banking & Finance**, **30**(11), 2931–2943.
3. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., Laeven, L., Levine, R. (2008). *Finance, Firm Size, and Growth.* **Journal of Money, Credit and Banking**, **40**(7), 1379–1405.
4. Audretsch, D.B., Keilbach, M. (2004). *Does Entrepreneurship Capital Matter?* **Entrepreneurship Theory and Practice**, **28**(5).
5. Audretsch, D.B., Keilbach, M., Lehmann, E.E. (2006). *Entrepreneurship and Economic Growth.* Oxford University Press.
6. Davidsson, P., Achtenhagen, L., Naldi, L. (2010). *Small Firm Growth. Foundations and Trends in Entrepreneurship*, **6**(2), 69–166.
7. Davidsson, P. (1989). *Continued Entrepreneurship and Small Firm Growth.* Stockholm School of Economics.
8. Davidsson, P., Klofsten, M. (2003). *The Business Platform: Developing an Instrument to Gauge and to Assist the Development of Young Firms.* **Journal of Small Business Management**, **41**(1), 1–26.
9. Neumark, D., Wall, B., Zhang, J. (2008). *Do Small Businesses Create More Jobs? New Evidence from the National Establishment Time Series.* NBER Working Paper 13818.
10. OECD. (2019). *OECD SME and Entrepreneurship Outlook 2019.*
11. Nazarov, N. (2025). *O'zbekistonda kichik biznesning statistik ko'rsatkichlari axborot bazasining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.* **Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil**, **3**(6), 70–78. DOI: 10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss6-pp70-78.
12. Sharopova, N. (2025). *O'zbekistonda kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish tendensiyalari.* DOI: 10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss3-pp448-457.
13. Akbarova, B.Sh. (2025). *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini hududiy statistik guruhlash.* **Marketing Jurnal**, **2**.
14. Ergashov, S., Komiljonov, B. (2024). *Kichik biznesga ta'sir qiladigan omillarning statistik tahlili.* **University Research Base**.
15. Nuritdinov, J., Xoshimov, I. (2024). *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi va hududlar bo'yicha daromadlar orasidagi bog'liqlik ekonometrik tahlili.*
16. Nazarov, N.G'. (2026). *Kichik va o'rta biznes subyektlari iqtisodiy samaradorligini baholash tizimining ko'p omilli ekonometrik tahlili.* **Marketing Jurnal**, **6**, 221–231. DOI: 10.67668/mj/2026iss6/1215.
17. www.stat.uz
18. www.stat.siat.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100